



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI DOIRASIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH.

Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi magistranti

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası dotsenti,

Fan o'qituvchisi, fqodirov@shdpi.uzh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19332764>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 25-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 30-mart 2026 yil

KEYWORDS

barqaror rivojlanish, innovatsion
loyihalar, loyiha boshqaruvi,
strategik boshqaruv, ekologik
barqarorlik, iqtisodiy
samaradorlik, innovatsion
iqtisodiyot.

ABSTRACT

Mazkur maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida innovatsion loyihalarni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Global iqtisodiyotning transformatsiyasi, ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik va resurslardan oqilona foydalanish zarurati innovatsion boshqaruv yondashuvlarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Tadqiqotda innovatsion loyihalarni boshqarishning zamonaviy modellari, barqaror rivojlanish tamoyillari bilan integratsiyasi hamda loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirish omillari ko'rib chiqilgan. Maqolada tizimli tahlil, komparativ tahlil, ilmiy umumlashtirish va statistik baholash metodlari qo'llanilgan. Tadqiqot natijasida barqaror rivojlanish maqsadlari asosida innovatsion loyihalarni boshqarishning samarali modeli taklif etildi. Ushbu model iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari davlat boshqaruvi organlari, ilmiy muassasalar hamda innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar barqaror rivojlanish konsepsiyasining ahamiyatini yanada oshirdi. Resurslarning cheklanganligi, iqlim o'zgarishi, demografik bosim va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolar insoniyat oldida yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu sababli zamonaviy rivojlanish strategiyalari iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy muvozanatni ham ta'minlashga qaratilmoqda.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tizimlarning o'zaro uyg'un rivojlanishini nazarda tutadi. Innovatsiyalar esa ushbu jarayonning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Innovatsion loyihalar yangi texnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Bugungi sharoitda sanoat korxonalari faoliyati faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan emas, balki ularning innovatsion salohiyati, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish qobiliyati va bozor muhitida raqobatbardoshligini saqlab qolish bilan ham belgilanadi. Innovatsion faoliyat yangi mahsulot, xizmat yoki texnologiyani ishlab chiqish va tatbiq etish orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, bu jarayon o'z tabiatiga ko'ra murakkab, tavakkalchilik darajasi yuqori va natijasi uzoq muddatli bo'ladi. Shunday ekan, innovatsion loyihalar ustida korporativ boshqaruv tizimi doirasida resurslar (moliyaviy, intellektual, mehnat), loyiha bosqichlari, maqsadli ko'rsatkichlar va natijalar o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash, baholash va monitoring qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va boshqaruvini takomillashtirishga yo'naltirilgan bir qator qonun-huquqiy hujjatlar va davlat tashabbuslari qabul qilindi. Masalan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" tasdiqlangan bo'lib, bu hujjat doirasida innovatsion faoliyat sub'yektlari soni 613-tadan 2 250 taga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, ilm-fan va innovatsion faoliyatni davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risidagi farmon loyihasi e'lon qilingan – unda hududlarda innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish, ilm-fan sohasida moliyalashtirishni oshirish kabi yo'nalishlar belgilab qo'yilgan. Ushbu huquqiy bazaning takomillashuvi korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarishda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash va monitoring qilish metodikasini rivojlantirish uchun foydali zamin yaratadi.

Bugungi kunda innovatsion loyihalarni samarali boshqarish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Innovatsion loyihalar murakkab tizim bo'lib, ular ko'plab manfaatdor tomonlar, moliyaviy resurslar, texnologiyalar va boshqaruv jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shu sababli ushbu loyihalarni boshqarishda zamonaviy metodologiyalar va strategik yondashuvlar zarur.

Tadqiqotning asosiy maqsadi barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida innovatsion loyihalarni boshqarishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda samarali boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi birinchi marta xalqaro miqyosda 1987-yilda e'lon qilingan "Brundtland hisobotida" keng muhokama qilingan. Ushbu hujjatda barqaror rivojlanish kelajak avlod ehtiyojlariga zarar yetkazmagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida ta'riflangan.

Keyinchalik barqaror rivojlanish g'oyasi global rivojlanish strategiyalarining asosiy yo'nalishiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishning muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Innovatsion rivojlanish masalalari iqtisodiy nazariyada ham keng o'rganilgan. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion faoliyat yangi mahsulotlar, texnologiyalar va boshqaruv usullarini yaratishga qaratilgan.

Loyiha boshqaruvi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar innovatsion loyihalarni boshqarishda tizimli yondashuv muhimligini ko'rsatadi. Innovatsion loyihalar yuqori darajadagi noaniqlik, texnologik risklar va bozor o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

B. Tursunov o'z tadqiqotida innovatsion loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholashning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilgan. Muallif

NPV (Sof joriy qiymat), IRR (Ichki rentabellik darajasi) va PP (Qaytish muddati) kabi klassik ko'rsatkichlardan tashqari, innovatsion loyihalar uchun maxsus ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion loyihalarning noaniqlik darajasi yuqori bo'lganligi sababli, real opsiya nazariyasiga asoslangan baholash usullari an'anaviy diskontlangan pul oqimlari usulidan ko'ra samaraliroq hisoblanadi. Muallif shuningdek, innovatsion loyihalarni baholashda texnologik, bozor va operatsion risklarni integratsiyalashgan holda hisobga olish metodikasini taklif etgan [3]. S.Abdullayeva va A.Rahimov innovatsion loyihalarda resurs samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etganlar. Mualliflar innovatsion loyihalarda inson resurslari, moliyaviy resurslar va texnologik resurslarni muvozanatli taqsimlash muhimligini ta'kidlaydilar. Tadqiqot doirasida O'zbekiston korxonalarida amalga oshirilgan 45 ta innovatsion loyiha tahlil qilingan va resurslarni samarali boshqarish natijasida loyihalar bajarilish muddati o'rtacha 23% ga qisqarganligi va xarajatlar 18% ga kamaytirganligi aniqlangan. Mualliflar portfolio menejmenti yondashuvini qo'llash orqali bir nechta innovatsion loyihalarni parallel boshqarish va resurslarni dinamik taqsimlash imkoniyatlarini ko'rsatganlar [4]. D.Karimov innovatsion loyihalarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning rolini o'rgangan. Muallif Big Data, sun'iy intellekt va bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanib, real vaqt rejimida loyiha ko'rsatkichlarini kuzatish va tahlil qilish tizimini ishlab chiqish zarurligini asoslagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli monitoring tizimlari joriy etilgan korxonalarda innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatli yakunlanish darajasi 34% ga oshgan. Muallif dashboard (boshqaruv paneli) texnologiyalari yordamida KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari)larni vizuallashtirish va qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkoniyatlarini namoyish etgan. Bu yondashuv loyiha menejerlariga operativ ravishda muammolarni aniqlash va to'g'rilash choralari ko'rish imkonini beradi [5]. Umuman olganda, innovatsion loyihalarni boshqarishda moliyaviy, resurs va raqamli texnologik yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llash orqali strategik qarorlarni optimallashtirish, risklarni kamaytirish va barqaror natijadorlikka erishishga qaratilgan kompleks boshqaruv modelini shakllantirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda barqaror rivojlanish va innovatsion loyiha boshqaruvi o'rtasidagi integratsiya masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuv innovatsion faoliyatni faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ekologik va ijtimoiy natijalar bilan birgalikda baholashni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tizimli tahlil usuli yordamida barqaror rivojlanish va innovatsion loyiha boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi.

Innovatsion loyihalarni boshqarishda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini shakllantirish va tahlil qilish usullarini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tadqiqot usullarining kombinatsiyasidan foydalanildi. Nazariy asosni shakllantirish uchun systematic literature review (tizimli adabiyotlar sharhi) usuli qo'llanib, xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi hujjatlari tahlil qilindi. Empirik tadqiqot bosqichida O'zbekiston korxonalarida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun case study (amaliy holat o'rganish) usulidan foydalanildi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini

tahlil qilish uchun miqdoriy va sifat tadqiqot usullari integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Miqdoriy tahlil doirasida NPV (Net Present Value - Sof joriy qiymat), IRR (Internal Rate of Return - Ichki rentabellik darajasi), PI (Profitability Index - Rentabellik indeksi), ROI (Return on Investment - Investitsiya rentabelligi) va Payback Period (Qaytish muddati) kabi klassik moliyaviy ko'rsatkichlar o'rganib chiqildi

Komparativ tahlil metodi turli mamlakatlarda innovatsion loyihalarni boshqarish tajribasini taqqoslash imkonini berdi. Ushbu yondashuv samarali boshqaruv modellarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Statistik tahlil usuli innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llanildi. Bundan tashqari, ilmiy umumlashtirish metodi yordamida mavjud nazariy qarashlar tahlil qilinib, yangi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy masalalar o'rganildi:

- barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslari
- innovatsion loyihalarni boshqarish metodologiyasi
- barqaror rivojlanish maqsadlari bilan integratsiyalashgan loyiha boshqaruvi modeli

Innovatsion loyiha — bu yangi texnologiya, mahsulot yoki xizmatni yaratish va joriy etishga qaratilgan vaqtinchalik faoliyat majmuasidir. Bunday loyihalar yuqori darajadagi ilmiy tadqiqot, texnologik rivojlanish va moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi.

Innovatsion loyihalarni boshqarish jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

1. loyiha g'oyasini shakllantirish
2. loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish
3. loyiha rejasini ishlab chiqish
4. loyihani amalga oshirish
5. monitoring va baholash

Har bir bosqich samarali boshqaruvni talab qiladi. Innovatsion loyihalarda risk darajasi yuqori bo'lgani sababli loyiha boshqaruvi jarayonida risklarni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishning asosiy muammolaridan biri — iqtisodiy o'sish bilan ekologik xavfsizlikni muvozanatlashdir. Mamlakat tez rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega bo'lib, sanoatlashuv, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohaslarida o'sish sur'atlari yuqori. Biroq, bu jarayonda tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatadigan omillar ham kuchaymoqda. Masalan, sanoat korxonalari va qishloq xo'jaligi faoliyatidan kelib chiqadigan ifloslanish, suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi, chiqindilarni noto'g'ri boshqarish ekologik muvozanatga zarar yetkazmoqda. Shuning uchun iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish jarayonida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun qator innovatsion va samarali yechimlarni topish zarur. O'zbekiston hukumati bu masalani hal etishda qator strategik hujjatlar va dasturlarni ishlab chiqdi va amalga oshirmoqda. Jumladan, "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi mamlakat iqtisodiyotini ekologik toza va samarali yo'nalishga yo'naltirishga qaratilgan. Bu konsepsiya doirasida quyosh va shamol energetikasi, biomassa energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohalarga investitsiyalar jalb qilinib, yangi zamonaviy energetika loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat energiya xavfsizligini ta'minlash, balki iqlim o'zgarishining oldini olishda ham muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi O'zbekiston uchun juda muhimdir, chunki mamlakat suv

tanqisligi hududida joylashgan. Suvning asosiy qismi qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga sarflanadi. Shu sababli tomchilab sug'orish texnologiyalari, lazerli yer tekislash, suv taqsimotini monitoring qilish tizimlari kabi innovatsiyalar joriy qilinmoqda. Bu 153 amaliyotlar suv sarfini kamaytirib, hosildorlikni oshirishga imkon beradi. Natijada iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlik o'zaro muvozanatlashadi. Chiqindilarni boshqarish sohasida ham muhim islohotlar olib borilmoqda. Aholi va sanoat chiqindilarini saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha yangi tizimlar joriy etilmoqda. Qayta ishlangan chiqindilar iqtisodiyotga qayta kiritilmoqda, bu esa tabiiy resurslarga bo'lgan bosimni kamaytiradi. Bu sohada xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik kengaymoqda. O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lida ijtimoiy omillar ham e'tibordan chetda qolmayapti. Ekologik madaniyatni oshirish uchun maktablarda va oliy o'quv yurtlarida ekologik ta'lim dasturlari kengaytirilmoqda. Shuningdek, "Yashil makon" umumxalq harakati doirasida millionlab daraxtlar ekilishi aholi ongini o'stirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ammo barqaror rivojlanish loyihalarini amalga oshirish jarayonida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Eng asosiy muammolardan biri — investitsiya resurslarining cheklanganligi, ayniqsa yuqori texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larning yetishmasligi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda ekologik qonunchilikning to'liq bajarilmasligi va nazorat tizimlarining samaradorligi pastligi ham muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, aholining ekologik mas'uliyat darajasi hali yetarli darajada oshmaganligi ham barqarorlikka to'sqinlik qilmoqda. Muammolarni hal etishda davlat organlari, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamkorlikning o'zaro uyg'unligi zarur. Shu bilan birga, innovatsion yechimlarni joriy etish, ekologik monitoring tizimlarini kuchaytirish va davlat tomonidan ilgari surilayotgan siyosatni doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribani o'rganish va unga moslashtirish ham barqaror rivojlanish yo'lida qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda O'zbekiston uchun barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishlari sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalarini yanada kengaytirish, suv resurslarini boshqarishda yuqori texnologiyalarni tatbiq etish, chiqindilarni qayta ishlashni yanada rivojlantirish va ekologik ta'limni mustahkamlash ko'rsatish mumkin. Bu yo'nalishlar mamlakat iqtisodiy o'sishini barqarorlashtirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari innovatsion faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Innovatsiyalar ekologik texnologiyalarni rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash imkonini beradi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda innovatsion loyihalar **asosiy mexanizmlardan biri** hisoblanadi. Chunki ko'plab global muammolar — iqlim o'zgarishi, kambag'allik, resurslarning kamayishi kabi muammolarni an'anaviy usullar bilan hal qilish qiyin. Innovatsiyalar esa yangi va samarali yechimlarni taklif qiladi.

Innovatsion loyihalarining BRMdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi Innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Bu BRMning iqtisodiy rivojlanishga oid maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi Yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va resurslarni tejovchi innovatsiyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy muammolarni kamaytiradi Innovatsion loyihalar ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini yaxshilaydi.

Raqamli transformatsiyani jadallashtiradi Axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsiyalar davlat boshqaruvi, ta'lim va iqtisodiyotda samaradorlikni oshiradi.

Innovatsion loyihalar quyidagi yo'nalishlarda barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi:

- yashil texnologiyalarni joriy etish
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish
- chiqindilarni kamaytirish
- ekologik xavfsizlikni ta'minlash

Shu bilan birga, innovatsion loyihalar ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnologiyalar yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Innovatsion loyihalarni boshqarishning samarali modeli esa tadqiqot natijalariga asoslanib barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan innovatsion loyiha boshqaruvi modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi elementlardan iborat:

1. strategik rejalashtirish
2. manfaatdor tomonlarni jalb qilish
3. ekologik va ijtimoiy baholash
4. risklarni boshqarish
5. monitoring va baholash

Mazkur model innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Muhokama va natija

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion loyihalarni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarish iqtisodiy tizimlarning barqarorligini oshiradi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ham zarur. Xususan, vechur kapital, grantlar va davlat dasturlari innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda innovatsion loyihalarni samarali boshqarish muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Innovatsion loyiha boshqaruvi tizimi iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy rivojlanishni birgalikda ta'minlashi zarur.

Kelajakda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish
- ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash
- ekologik texnologiyalarni joriy etish
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish

Mazkur chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- 2.Qodirov, Farrux, and Sabrina Turayeva. "IOT (INTERNET OF THINGS) ORQALI SANOAT ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH." *Общественные*

науки в современном мире: теоретические и практические исследования 4.7 (2025): 75-83.

3.Qodirov, Farrux, and Husniya Ergasheva. "INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA UNING SAMARADORLIGI." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 3 (2024): 64-69.

4.Qodirov, F., N. Sirojev, and S. Negmatova. "Features of the Android Studio software package." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 130-146.

5.Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Econometric modeling of the development of medical services to the population of the region/Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities." (2022): 1-1.

6.Кодиров, Ф. Э., and О. Д. Дониёров. "ЭФФЕКТИВНЫЕ МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ КАШАКАДЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ." *Символ науки* 7-2 (2022): 15-17

7.Schumpeter J. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.

8.Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. New York, 1985.

9.Sachs J. The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, 2015.

10.G'ulomov S.S. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.

11.Yo'ldoshev Q. Innovatsion rivojlanish iqtisodiyoti. – Toshkent, 2019.

12.O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi. Innovatsion rivojlanish bo'yicha milliy hisobot, 2022.

13. Алланазарова, Анора. «ЯПАЙ ЗЕКА БЕ ОЗБЕК ДИЛИ: СОПУНЛАР БЕ ЧОЗЮМЛЕР». Конференции . Том. 1. № 01. 2025.

14. Allanazarova, Anora, and Muxiba Yaxiyaxonova. "INFORMATIKA VA AXBOROT TECHNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MEDIASAVODXONLIGINING O'RNI." *Универсальная индексная библиотека науки и техники в современном мире* 4.11 (2025): 23-27.

15.Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "INNOVATSION YONDASHUVLAR YORDAMIDA KAMBAG 'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIKNI TA'MINLASH." *FAROVONLIK SARI: PARTIYAVIY YONDASHUV VA AMALIY TASHABBUSLAR* (2025): 612.

16. Qodirov, Farrux, and Anora Allanazarova. "TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI TASNIFI." *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies* 2.11 (2025): 113-117.

17. O'G'Li, Qodirov Farrux Ergash, and Allanazarova Anora Muxobir Qizi. "GIPER HAVOLALAR VA SAYT BO'YICHA NAVIGATSIYA." *Central Asian Journal of Education and Innovation* 4.11 (2025): 4-11.

18. Qodirov, Farrux, and Anora Allanazarova. "Axborot Texnologiyalarining Ta'lim Jarayonidagi O 'rni Va Rivojlanish Bosqichlari." *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*: 676587.